

**TOSHKENT XALQARO KIMYO UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/04.06.2021.1.133.01**  
**RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

**SALAYEV DILSHODBEK SOFARBAYEVICH**

**MILLIY IQTISODIYOTDA INVESTITSIYA MUHITINI YAXSHILASH**  
**ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASH**

**08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi**

**IQTISODIYOT FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)**  
**DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on economical  
sciences**

**Salayev Dilshodbek Sofarbayevich**

Milliy iqtisodiyotda investitsiya muhitini yaxshilash asosida barqaror  
iqtisodiy o‘shishni ta’minlash.....3

**Салаев Дилшодбек Софарбаевич**

Обеспечение устойчивого экономического роста на основе  
улучшения инвестиционной среды в национальной экономике.....27

**Salaev Dilshodbek Sofarbaevich**

Providing sustainable economic growth based on improving the  
investment environment in the national economy.....53

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....57

**TOSHKENT XALQARO KIMYO UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/04.06.2021.1.133.01**  
**RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

**SALAYEV DILSHODBEK SOFARBAYEVICH**

**MILLIY IQTISODIYOTDA INVESTITSIYA MUHITINI YAXSHILASH**  
**ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASH**

**08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi**

**IQTISODIYOT FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)**  
**DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2018.3.PhD/Iqt.624 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsue.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Rasulov To'liq Sattarovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Abdullaev Suyun Artikovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Karimov Norboy G'aniyevich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Namangan muhandislik-qurilish instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent xalqaro Kimyo universiteti huzuridagi falsafa fanlari doktori (PhD) ilmiy daraja beruvchi PhD.03/04.06.2021.1.133.01 raqamli ilmiy kengashning 2023 yil «23» dekabr soat 11:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100121, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Usmon Nosir ko'chasi, 156-uy. Tel.: (99878) 129-40-40; E-mail: info@ytit.uz)

Dissertatsiya bilan Toshkent xalqaro Kimyo universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (7 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100121, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Usmon Nosir ko'chasi, 156-uy. Tel.: (99878) 129-40-40; E-mail: info@ytit.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «7» dekabr kuni tarqatildi.

(2023 yil «7» dekabr dagi 4 - raqamli reestr bayonnomasi).



**Vaxabov Abduraxim Vasikovich**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, iqtisodiyot fanlari doktori,  
professor

**Allakuliyev Akmal Baltayevich**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha  
falsafa doktori (PhD)

**Kudaybergenov Janpolat Shamuratovich**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari,  
iqtisodiyot fanlari nomzodi,  
dotsent

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda sodir bo‘layotgan turli ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, texnogen va tabiiy omillar ta’sirida global qo‘shilgan qiymat zanjirlarining uzilishi sharoitida, bir tomondan, investitsiyalarga bo‘lgan talabning ortayotganligi, ikkinchi tomondan, ekologik talablarning kuchayishi tufayli barqaror iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini ta’minlash zaruriyati investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirishni taqozo etmoqda. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra “2021-yilda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning global oqimi 1,58 trln. dollarga yetdi. Bu koronavirus pandemiyasi tufayli salmoqli darajada pasaygan 2020-yil ko‘rsatkichiga nisbatan 64 foizga yuqori hisoblanadi”<sup>1</sup>. Ayni vaqtda investitsiya resurslari uchun mamlakatlar o‘rtasida raqobat kurashining keskinlashuvi investitsiya muhitini rivojlantirish strategiyalarini o‘zgartirish asosida barqaror iqtisodiy o‘shishni ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlari muhim o‘rin tutmoqda.

Jahonda investitsiyalarni sanoatning qayta ishlovchi tarmoqlariga yo‘naltirish, raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarni joriy etish asosida qulay investitsiya muhitini shakllantirish, milliy manfaatlarni e’tiborga olib xorijiy investitsiyalar jalb etish hajmini oshirishning strategik maqsadlarini qamrab olgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xalqaro ilmiy markazlar tadqiqotlarida iqtisodiyotda tarkibiy va institutsional o‘zgarishlarni amalga oshirish asosida investitsion muhitini yaxshilash uchun shart-sharoitlar yaratish, innovatsion yondashuvlarni joriy etgan holda qulay investitsiya muhitini shakllantirishning samarali usul va vositalarini ilmiy jihatdan asoslash, muhim investitsiya loyihalarini amalga oshirishda davlat-xususiy sherikligi imkoniyatlaridan samarali foydalanish ilmiy tadqiqotlarning dolzarb yo‘nalishlari hisoblanadi.

O‘zbekistonda investitsiya faoliyatini amalga oshirish erkinligini ta’minlash, milliy va xorijiy investorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini kafolatlangan holda himoyalash, qulay investitsiya muhitini shakllantirish asosida investitsiyalar hajmini keskin oshirishga ustuvor yo‘nalishlar sifatida qaralmoqda. Jumladan, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSH dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralari ko‘rish”<sup>2</sup> vazifasi qo‘yilgan. Milliy iqtisodiyotga jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalarning mintaqalar kesimida notekis joylashuvi va uning hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida tabaqalanishni keltirib chiqarishi uzoq muddatli davrda mamlakat barqaror iqtisodiy o‘shish sur‘atlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu munosabat bilan xorijiy investitsiyalarni mintaqalar iqtisodiyotiga jalb etishning samarali mexanizmini joriy etish asosida investitsiya muhitini yaxshilash va barqaror o‘shish sur‘atlarini ta’minlash yo‘nalishlarida keng qamrovli tadqiqotlar olib borilishini taqozo etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-avgustdagi PF-5495-son

---

<sup>1</sup>World Bank, “Investment Climate” / [www.worldbank.org/investmaentclimate](http://www.worldbank.org/investmaentclimate)>

<sup>2</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PQ-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni / <https://lex.uz/uz/docs/5841063#5844066>

“O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 2-iyundagi PF-6003-son “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to‘g‘risida”, 2022-yil 28-anvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 21-dekabrda PF-269-son “Yangi O‘zbekiston ma‘muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston-2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2019-yil 29-aprelda PQ-4300-son “Respublika iqtisodiyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 28-dekabrda PQ-4937-son “O‘zbekiston Respublikasining 2021-2023-yillarga mo‘ljallangan Investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga mos ravishda bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Investitsiya muhiti va barqaror iqtisodiy o‘shish o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanishlar, investitsiya muhitini yaxshilashning barqaror iqtisodiy o‘shishga ta‘siri masalalarini tahlil etish iqtisodiy adabiyotda muhim o‘rin tutadi. Investitsiyalarning iqtisodiy o‘shish sur‘atlari va sifatiga ta‘sirining nazariy jihatlari xorijlik iqtisodchi-olimlar – Y.Shumpeter, J.M.Keyns, R.Xarrod, K.Makkonnell, S.Bryu, P.Samuelson, G.Lourens, X.De Gregorio, N.Bayraktar, R.Nelson, S.Uinter, P.Druker<sup>3</sup> va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

Investitsiya muhitini baholash, investitsiyalar va barqaror iqtisodiy o‘shish o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning ayrim jihatlari yaqin xorij mamlakatlari olimlari – L.I. Abalkin, M.I.Abramova, P.L. Vilenskiy, V.V.Yeremin, G.A.Koroleva, B.N.Kuznetsov, E.I.Lavrov, V.N.Livshis, V.V.Litvinova, M.U.Makoveskiy, D.E.Mereshkin, N.D.Kondratyev, V.A.Plotnikov, Y.V.Yakoves<sup>4</sup>lar tomonidan

---

<sup>3</sup>Шумпетер Й. Теория экономического развития. / предисл. В.С.Автономова. – М.: ЭКСМО, 2007. – 864 с.; Кейнс Ж.М. Общая теория занятости, процента и денег. – М.: Издательство Юрайт, 2018. – 342 с.; Харрод Р. Теория экономической динамики: Пер. с англ. В.Е. Маневича. /Под ред. В.Г. Гребенникова. – М.: ЦЭМИ РАН, 2008. – 210 с.; Макконелл К.Р., Брю С.Л., Флин Ш.М. Экономикс: принципы, проблемы и политика: пер. с англ. изд. – М.: ИНФРА-М, 2011. – 1010 с.; Самуэльсон Пол Э., Нордхаус Вильям Д. Экономика. – М.: Вильямс, 2018. – 1328 с.; Гитман Лоуренс Дж. Основы инвестирования: пер. с англ. – М.: Дело, 1999. – 991 с.; Jose De Gregorio. The role of foreign direct investment and natural resources in economic development. – Santiago: Working Paper No196. Central Bank of Chile, 2003 – P. 1-21; Bayraktar N. Foreign Direct Investment and Investment Climate //Procedia Economics and Finance. – 2013. – Vol.5. – P. 83-92; Нельсон Р.Р., Уинтер С.Дж. Эволюционная теория экономических изменений: пер. с англ. – М.: Дело, 2002. – 535 с; Друкер П.Ф. Бизнес и инновации: пер. с англ. – М.: Вильямс. 2007. – 432 с.

<sup>4</sup>Абрамова М.И. Оценка инвестиционного климата региона (на примере Саратовской области) // Экономическая безопасность и качество. – 2019. – №1(34). – С. 38–42; Еремин В. В. Модель учета эффекта мультипликатора-акселератора при реализации инвестиционных проектов // Журнал экономической теории. – 2020. – Т. 17. – №3. – С. 574-588; Королева Г.А., Титов А.В. Оценка влияния иностранных инвестиций на социально-экономическое развитие страны и региона на примере Ярославской области //Вестник Воронежского государственного университета. Серия: Экономика и управление. 2022. – №1. – С.60-71.; Литвинова В.В. Инвестиционная

o'rganilgan.

O'zbekistonlik iqtisodchi-olimlar D.S.Almatova, A.V.Vahabov, B.Valiyev, E.A.Maxmudov, Sh.I.Mustafokulov, U.S.Nadirxanov, A.Sobirov, N.A.Xoshimova, D.G.G'ozibekov<sup>5</sup> va boshqalar investitsion faollik va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni tadqiq etganlar. Shuningdek, A.V.Vahabov, I.J.Jaxongirov, U.A.Madrahimov, N.N.Oblomuradov, S.Chepel, Sh.G.Yuldashev<sup>6</sup> va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida investitsiyalarning iqtisodiy o'sish sur'atlariga ta'siri atroflicha yoritib berilgan. Globalashuv sharoitida xalqaro tajribani hisobga olgan holda qulay investitsiya muhitini shakllantirish va shu asosda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning nazariy jihatlarini takomillashtirish masalalarini tizimli ilmiy tadqiq etish iqtisodiy adabiyotda dolzarb, kam o'rganilgan va ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lgan muammolardan hisoblanadi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining ilmiy-tadqiqot rejasiga muvofiq №PZ-20170928187–“Mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini va raqobatbardoshligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish yo'llari” mavzusidagi amaliy davlat ilmiy granti doirasida bajarilgan (2018-2020-yy.).

**Tadqiqotning maqsadi** milliy iqtisodiyotda investitsiya muhitini yaxshilash

---

привлекательность и инвестиционный климат региона: монография. М.: Финансовый университет, 2013. – 116 с.; Мерешкин Д.Е., Плотников В.А. Государственные процедуры по улучшению инвестиционного климата в Российской Федерации: перспективы совершенствования // Управленческое консультирование. 2021. – № 12. – С.70-80; Кондратьев Н.Д., Яковец Ю.В., Абалкин Л.И. Большие циклы конъюнктуры и теория предвидения. Избранные труды. – М.: Экономика. 2002 – 550 с.; Лавров Е.И., Маковецкий М.Ю., Виленский П.Л., Лившиц В.Н., Кузнецов Б.Т. Инвестиции. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2010. – 98 с.

<sup>5</sup>Вахобов А.В., Хожибадиев Ш.Х., Мўминов Н.Г. Хорижий инвестициялар. Ўқув қўлланма. - Т.: «Молия», 2010. 153 б.; Вахобов А.В., Разыкова Г.Х. Хожибадиев Ш.Х. Иностранные инвестиции и модернизация национальной экономики / Под ред. д.э.н. проф. А.В.Вахобова. – Т.: Молия, 2011. – 300 с.; Валиев Б.Б. Ўзбекистонда худудлар иқтисодийетини барқарор ривожлантиришда инвестиция салоҳиятини ошириш механизми. Иқт. фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Т., 2021. – 80 б.; Надирханов У.С. Прямые иностранные инвестиции в Узбекистане: опыт, проблемы, перспективы роста. – Т.: «Fan va texnologiya», 2011. 184 с.; Махмудов Э.А. Организационно-экономический механизм привлечения прямых иностранных инвестиций в экономику Узбекистана: Дисс. на соиск. уч. степени к.э.н. – Т.: Институт экономики АН РУз., 2005. – 27 с.; Мустафокулов Ш.И. Инвестицион муҳит жозибадорлиги: назария, методология ва амалиёт. / Монография. – Т.: Маънавият, 2017. – 328 б.; Сабиров А. Ўзбекистон Республикаси иқтисодийетига инвестициялар жалб этишни давлат томонидан тартибга солиш механизмларини такомиллаштириш. Иқт. фан. ном. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореферати. –Т.: ТДИУ, 2009. – 25 б.; Ғозибеков Д.Г. Инвестицияларни молиялаштириш масалалари. – Т.: “Молия”, 2003. – 332 б.; Хашимова Н.А. Совершенствование научно-теоретических основ развития инвестиционного потенциала в Республике Узбекистан. Автореферат докторской диссертации. – Т.: 2017. – 37 с.; Алматова Д.С. Минтакаларда тадбиркорлик фаолиятини ривожлантиришга инвестицияларни жалб этишни такомиллаштириш. Иқт. фан. ном. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореферати. – Т.: 2018. – 76 б.

<sup>6</sup> Вахобов А.В. Жаҳон амалиётда инновацион ривожланиш тажрибаси ва уни Ўзбекистонда қўллашнинг айрим жиҳатлари. // Иқтисод ва молия – Т., 2016. – №11. – Б.2-10.; Вахобов А.В. Иқтисодий ўсиш омиллари // Бозор, пул ва кредит. – Т., 2011. – №6(169). – Б.38-42.; Чепель С.В. Системный анализ и моделирование перспектив устойчивого развития национальной экономики Узбекистана. – Т.; Издательство IFMR, 2014. – 316 с.; Юлдашев Г.Ш. Иностранные инвестиции как фактор экономического роста и либерализации национального воспроизводства Республики Узбекистан. Дисс. на соиск. учен. степ. доктора экономических наук. – Ташкент, 2001. – 305 с.; Обломуратов Н.Н. Тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларни жалб қилишнинг назарий асослари ва устувор йўналишлари. Иқт. фан. ном. илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация – Тошкент, 2008. – 143 б.; Мадраҳимов У.А. Ўзбекистонда иқтисодий ўсиш сифатини ошириш йўллари. Иқт. фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. – Т., 2017. – 64 б.; Жаҳонгиров И.Ж. Саноат тармоғини инновацион-инвестицион ривожлантириш асосида иқтисодий ўсишни таъминлаш. Иқт. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореферати. – Т., 2019. – 61 б.

asosida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan nazariy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

investitsiya muhitiga berilgan ta'riflarni qiyosiy o'rganish asosida uning mohiyati va tarkibiy tuzilishini yoritish;

investitsiya muhiti va barqaror iqtisodiy o'sish o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni baholashga qaratilgan uslubiy yondashuvlarni tahliliy o'rganish;

qulay investitsiya muhitini shakllantirish asosida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning xorij tajribasini o'rganish va uning ijobiy jihatlaridan O'zbekistonda foydalanish imkoniyatlarini aniqlash;

O'zbekistonda investitsiya muhitini shakllantirishning meyoriy-huquqiy asoslarini tadqiq etish va uni takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish;

O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sish holatini baholash va rivojlanish tendensiyalarini aniqlash;

mamlakatimizda investitsiya muhiti jozibadorligini oshirish muammolarini aniqlash va ularni hal etishga oid ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish;

O'zbekistonda investitsiya muhitini yaxshilash asosida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari va istiqbollari bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** etib iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim omili sifatida O'zbekistondagi investitsiya muhiti tanlangan.

**Tadqiqotning predmeti** investitsiya muhitini yaxshilash asosida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar majmuasidan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot ishida tizimli va qiyosiy tahlil, guruhlash, dinamik qatorlar tahlili, korrelyatsiya va regressiya, SWOT tahlil, ilmiy bashoratlash kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

O'zbekistonning Iqtisodiy erkinlik indeksi reytingidagi komponentlari o'rnini "o'ta past" (0 – 0,50), "past" (0,50 – 0,60), "o'rta" (0,60 – 0,70), "yaxshi" (0,70 – 0,80) va "yuqori" (0,80-1,00) shkalasi orqali baholash, har bir komponent bo'yicha dasturlar ishlab chiqish asosida investitsiya muhitini yaxshilash taklifi asoslangan;

xorijiy va milliy investorlar uchun taqdim etilgan raqobat muhitini buzadigan eksklyuziv huquqlar, yakka tartibdagi imtiyozlar va preferensiyalarni bosqichma-bosqich bekor qilish orqali investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish va yashirin iqtisodiyotni legallashtirish taklifi asoslangan;

hududning barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan ichki investitsiyalar hajmini aniqlash mezonlari iqtisodiy xavfsizlik mezonlari – investitsiya me'yori ( $I_d/GDP \geq 25\%$ ), multiplikatori ( $\frac{\Delta Y}{\Delta I} < 2,5$ ) va qaytimi ( $ROI > 100\%$ ), shuningdek, har bir hudud investitsiya infratuzilmasining rivojlanish darajasini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan;

O'zbekistonda investitsiya muhitini yaxshilash asosida barqaror iqtisodiy o'sishning 2030-yilgacha mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlarining muqobil senariylari ishlab chiqilgan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

milliy iqtisodiyotga jalb etilgan xorijiy investitsiyalardan foydalanish samaradorligini aniqlash algoritmi taklif etilgan;

BERI va Iqtisodiy erkinlik indeksi asosida milliy iqtisodiyotda investitsiya muhitiga baho berilgan;

iqtisodiy o'sish sur'ati va sifatini ta'minlashda davlat investitsiya siyosatining o'rni aniqlashtirilgan;

O'zbekistonning ichki iqtisodiy zaxiralari va imkoniyatlaridan samarali foydalanish, investitsiyalar jalb etishning meyoriy-huquqiy asoslarini takomillashtirish asosida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi unda qo'llanilgan usullar va yondashuvlarning asoslanganligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Investitsiyalar savdo va sanoat vazirligi, ularning hududiy boshqarma va bo'linmalaridan olinganligi, tegishli taklif va xulosalarning muttasadi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mazkur tadqiqot jarayonida olingan ilmiy xulosa va tavsiyalardan investitsiya muhitini baholash va uning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish negizida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda xorijiy va milliy investitsiyalardan samarali foydalanishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ushbu tadqiqot natijasida olingan amaliy tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, savdo va sanoat vazirligi, uning hududiy bo'linmalari, mahalliy hokimliklar faoliyatlarida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning ustuvor yo'nalishlarini asoslash, investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan strategiya va dasturlar ishlab chiqishda, hamda oliy o'quv yurtlarida iqtisodiyot yo'nalishidagi fanlardan o'quv-uslubiy majmualarni tayyorlash va o'qitish jarayonlarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O'zbekistonda investitsiya muhitini yaxshilash asosida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

O'zbekistonning Iqtisodiy erkinlik indeksi reytingidagi komponentlari o'rnini "o'ta past" (0 – 0,50), "past" (0,50 – 0,60), "o'rta" (0,60 – 0,70), "yaxshi" (0,70 – 0,80) va "yuqori" (0,80-1,00) shkalasi orqali baholash, har bir komponent bo'yicha dasturlar ishlab chiqish asosida investitsiya muhitini yaxshilash bo'yicha taklifidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-maydagi PQ-246-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ustuvor xalqaro reyting va indeksning tarkibiy indikatorlari doirasida muntazam past baholanib kelinayotgan soha va tarmoqlarni jadal rivojlantirish bo'yicha o'rta va uzoq muddatli strategiyasi rejasi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligining 2022-yil 25-iyuldagi 02-10-07209-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida O'zbekistonning 2022-yilda Iqtisodiy erkinlik indeksi ko'rsatkichlari yaxshilangan, investitsiya erkinligi tarkibiy indikatorlari 30 birlikka oshgan;

xorijiy va milliy investorlar uchun taqdim etilgan raqobat muhitini buzadigan

eksklyuziv huquqlar, yakka tartibdagi imtiyozlar va preferensiyalarni bosqichma-bosqich bekor qilish orqali investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish va yashirin iqtisodiyotni legallashtirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6098-son farmoni bilan tasdiqlangan “Yashirin iqtisodiyot va korrupsiyaga qarshi kurashishda vazirlik va idoralarning faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish hamda soliq va bojxona ma’uriyatchiligini takomillashtirish bo‘yicha “yo‘l xarita”si”da o‘z aksini topgan. (O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligining 2022-yil 25-iyuldagi 02-10-07209-son ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida amaldagi muddatsiz yakka tartibdagi imtiyozlar va preferensiyalar 50 foizga qisqartirildi;

hududning barqaror iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan ichki investitsiyalar hajmini aniqlash mezonlari iqtisodiy xavfsizlik mezonlari – investitsiya meyori ( $I_d/GDP \geq 25\%$ ), multiplikatori ( $\frac{\Delta Y}{\Delta I} < 2,5$ ) va qaytimi ( $ROI > 100\%$ ), shuningdek, har bir hudud investitsiya infratuzilmasining rivojlanish darajasini hisobga olgan holda ishlab chiqish taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 9 yanvardagi PQ-4563-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasining 2020-2022-yillarga mo‘ljallangan Investitsiya dasturi”ni ishlab chiqishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va Tashqi savdo vazirligining 2022-yil 25-iyuldagi 02-10-07209-son ma’lumotnomasi). Buning natijasida, investitsiya takliflarini qabul qilishning takomillashgan mezonlarini ishlab chiqishga erishilgan;

O‘zbekistonda investitsiya muhitini yaxshilash asosida barqaror iqtisodiy o‘shishning 2030-yilgacha mo‘ljallangan prognoz ko‘rsatkichlarining muqobil senariylaridan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-apreldagi PF-101-son farmoni bilan tasdiqlangan “Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va iqtisodiy o‘shishni ta’minlashda xususiy sektorning rolini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar rejasi”ni ishlab chiqishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va Tashqi savdo vazirligining 2022-yil 25-iyuldagi 02-10-07209-son ma’lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga qo‘llanilishi natijasida mamlakatda qulay investitsiya muhitini shakllantirish asosida barqaror iqtisodiy o‘shishni ta’minlashning 2030-yilgacha bo‘lgan davridagi maqsadli prognoz ko‘rsatkichlari va unga erishish mexanizmlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 11 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ishlar, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK e’tirof etgan jurnallarda 7 ta, nufuzli xorijiy ilmiy jurnallarda 4 ta (shundan 1 tasi xalqaro “Scopus” bazasidagi ilmiy jurnallarda) ilmiy maqola chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 156 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Investitsiya muhiti va uning iqtisodiy o‘shiga ta’sirini tadqiq etishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida investitsiya muhitiga oid ilmiy konsepsiyalarning rivojlanishi tahlil qilinib, ushbu atamaga muallif ta’rifi keltirilgan, qulay investitsiya muhitini shakllantirishning iqtisodiy o‘shiga ta’sirini baholash uslublari qiyosiy o‘rganilgan, qulay investitsiya muhitini shakllantirish borasidagi xorij tajribasi tadqiq etilgan hamda uning ijobiy jihatlaridan O‘zbekistonda foydalanish imkoniyatlari asoslangan.

O‘zbekistonda keng miqyosli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar amalga oshirilayotgan sharoitda investitsiyalar jalb etishni faollashtirish barqaror iqtisodiy o‘shini ta’minlashning muhim sharti bo‘lib, u qulay investitsiya muhitini shakllantirish bilan chambarchas bog‘liq. Investitsiya muhiti investitsiya jarayonlarining rivojlanishi, investitsiyalash sur‘atlari va samaradorligini oshirish uchun shart-sharoitlarni belgilab beradi.

Milliy iqtisodiyotga investitsiyalar jalb etish hajmining oshishi yangi va ilg‘or texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish, innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda inson kapitali miqdorining ortishi va sifatining yaxshilanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa o‘z navbatida ishlab chiqarishning texnik jihatdan ta’minlanishi va ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlarning tashqi va ichki bozorlarda raqobatbardoshlik darajasining oshishiga, yirik infratuzilma loyihalarini ro‘yobga chiqarish, aholini ish bilan ta’minlash, ishsizlikni qisqartirish kabi turli ijtimoiy muammolarni hal etish, pirovard natijada, aholi turmush farovonligining yaxshilanishiga olib keladi.

Shu nuqtai nazardan “investitsiya muhiti”ni nazariy jihatdan tadqiq etish, unga bo‘lgan qarashlar va konsepsiyalarni qiyosiy tahlil etish asosida ushbu yondashuvlardagi umumiy va o‘ziga xos jihatlarni aniqlash alohida ahamiyatga ega.

Investitsiya muhitining mazmuni va mohiyati, tarkibiy tuzilishi, uning barqaror iqtisodiy o‘shiga ta’siri, investitsiyalardan samarali foydalanish masalalari bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan mamlakatimiz va boshqa xorijiy olimlarning ilmiy yondoshuvlarini tahlil qilish natijalari “investitsiya muhiti”ning murakkab, ko‘p qirrali tushuncha ekanligi va uning mohiyatini yoritib beruvchi umumqabul qilingan yagona ta’rifi mavjud emasligini ko‘rsatadi (1-jadval).

Dissertatsiyada turli nazariy qarashlarni inobatga olgan holda muallif tomonidan “investitsiya muhiti” tushunchasiga quyidagicha to‘ldirilgan ta’rif berilgan: **investitsiya muhiti** – uzoq davr mobaynida mamlakatning investitsiya jozibadorligi va investitsiya xavf-xatarlarini baholash asosida shakllanadigan investitsiyalash sharoitlarining integral tavsifi hisoblanadi va potensial investorlarning investitsiya kiritish xohish-istaklariga ta’sir ko‘rsatadi.

“Investitsiya muhiti” tushunchasiga bo‘lgan yondashuvlar<sup>7</sup>

| <i>Muallif</i>  | <b>“Investitsion muhit” tushunchasining sharhi</b>  |
|---|---|
| <i>Jahon banki</i>  | “kompaniyalar imkoniyatlarini belgilab beruvchi va ularda samarali investitsiyalarni amalga oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va o‘z faoliyatini kengaytirish uchun rag‘batlarni shakllantiruvchi har bir joyga xos bo‘lgan omillar majmui” <sup>8</sup>   |
| <i>B.A.Rayzberg, L.Sh.Lofovskiy va Ye.B.Starodubtseva</i> | “investitsiya muhiti – bu mamlakat iqtisodiyotiga jalb qilinayotgan ichki va tashqi investitsiyalar oqimiga ta‘sir ko‘rsatuvchi iqtisodiy, siyosiy va moliyaviy shart-sharoitlardir” <sup>9</sup>   |
| <i>Yangi iqtisodiyot instituti</i>                        | “Investitsiya muhiti – milliy iqtisodiyotga jalb etish uchun milliy va xorijiy investorlar uchun bir xil jozibador, teng darajada investitsiya jarayonlariga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadigan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy shart-sharoitlar majmui” <sup>10</sup>                                   |
| <i>“Ekspert RA” reyting agentligi</i>                     | “investitsiya jozibadorligi investitsiya muhiti bilan mazmunan bir xil tushuncha hisoblanadi va tarkibiga investitsiya salohiyati (mamlakatning ob‘ektiv imkoniyatlari) va investitsiyaviy xavf-xatari (investor faoliyati sharoiti)ni oladi” <sup>11</sup> .   |
| <i>Maksimova V.F.</i>                                     | “Kelajakda daromad olish maqsadida vaqtincha bo‘sh pul mablag‘larini investitsiyalash uchun mamlakatda shakllangan siyosiy va iqtisodiy sharoitlarning kombinatsiyasi investitsiya muhiti deb nomlanadi” <sup>12</sup> .  |
| <i>Mustafaqulov Sh.I.</i>                                 | “investitsiya muhiti investitsion jarayonlar amalga oshadigan sharoit bo‘lib, u hududning investitsiya faoliyati, investitsiyalarning risk darajasini aniqlaydigan siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy va boshqa omillar ta‘sirida shakllanadi” <sup>13</sup> .   |
| <i>Vaxabov A.V., Xojibaqiev Sh.X., Mo‘minov N.G.</i>      | “Investitsiya muhiti – bu xorijiy kapital qo‘yilmalarining qaltislik darajasini va ulardan mamlakatda samarali foydalanish imkoniyatlarini oldindan belgilaydigan iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy omillar yig‘indisidir” <sup>14</sup> .   |
| <i>Muallif ta‘rifi</i>                                    | investitsiya muhiti – uzoq davr mobaynida mamlakatning investitsiya jozibadorligi va investitsiya xavf-xatarlarini baholash asosida shakllanadigan investitsiyalash sharoitlarining integral tavsifi hisoblanadi va potensial investorlarning investitsiya kiritish xohish-istaklariga ta‘sir ko‘rsatadi. |

Tadqiqot natijalari investitsiya salohiyati va investitsiya jozibadorligi o‘rtasida to‘g‘ri bog‘liqlik, investitsiya riski va investitsiya jozibadorligi o‘rtasida esa teskari bog‘liqlikni ifodalovchi obyektiv iqtisodiy qonun amal qilishini ko‘rsatdi. Investitsiya

<sup>7</sup> Muallof tomonidan tuzilgan.

<sup>8</sup> World Development Report 2005: A Better Investment Climate for Everyone (World Development Report) // The International Bank for Reconstruction and Development / The World Bank. 2004. – P. 2.

<sup>9</sup> Райзберг Б.А., Лозовский Л.Ш., Стародубцева Е.Б. Современный экономический словарь. – М.: ИНФРА – М. 2010.

<sup>10</sup> Новый экономический словарь / под ред. А.Н. Азрилияна. М.: Институт новой экономики, 2006. – С. 323.

<sup>11</sup> <https://raexpert.ru/>

<sup>12</sup> Максимова В.Ф. Реальные инвестиции / Московская финансово-промышленная академия. – М. – 2005. – 69 с.

<sup>13</sup> Мустафакулов Ш.И. Ўзбекистонда инвестицион мухит жозибадорлигини оширишнинг илмий-услубий масалалари. Иқтисодиёт фанлари доктори илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати: Тошкент, 2017. – 24 б.

<sup>14</sup> Вахабов А.В., Хожобақиев Ш.Х., Мўминов Н.Г. Хорижий инвестициялар. Ўқув қўлланма. – Т.: “Молия”, 2010. – Б.153.

salohiyati va investitsiya riski darajasining investitsiya jozibadorligiga birgalikdagi ta'sirini quyidagi qonuniyatlar orqali ifodalash mumkin (2-jadval).

**2-jadval**

**Investitsiya salohiyati va investitsiya riski darajasining investitsiya jozibadorligiga birgalikdagi ta'siri<sup>15</sup>**

| Holatlar | Investitsiya salohiyati darajasi | Investitsiya riski darajasi | Investitsiya jozibadorligi darajasi |
|----------|----------------------------------|-----------------------------|-------------------------------------|
| 1        | Yuqori (↑)                       | Past (↓)                    | Juda yuqori (↑↑)                    |
| 2        | Yuqori (↑)                       | Yuqori (↑)                  | O'rtacha (↕)                        |
| 3        | Past (↓)                         | Past (↓)                    | O'rtacha (↕)                        |
| 4        | Past (↓)                         | Yuqori (↑)                  | Juda past (↓↓)                      |

2-jadval ma'lumotlarining qiyosiy tahlili investitsiya jozibadorligining eng yuqori darajasiga 1-holatda, eng past darajasiga esa 4-holatda erishilishini, 2-3-holatlarda esa investitsiya jozibadorligi darajasining o'rtacha baholanishi sababli investitsiya muhitini yanada rivojlantirish zarurligi taqozo etilishini ko'rsatadi.

Muallif fikricha, qulay investitsiya muhitini shakllantirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijalariga baho berish, uning monitoringini yuritish orqali bu boradagi ishlar samaradorligini yanada oshirish mumkin.

Milliy iqtisodiyotda investitsiya muhiti holatiga baho berishda mamlakatning turli xalqaro reyting va indekslarda tutgan o'rni alohida ahamiyatga ega. Fikrimizcha, O'zbekistonda investitsiya muhitini yaxshilash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijalariga baho berishda "Iqtisodiy erkinlik indeksi" va uning har bir indikatorini bo'yicha egallagan o'rnini chuqur tahlil qilish maqsadga muvofiq (3-jadval).

**3-jadval**

**O'zbekistonning iqtisodiy erkinlik indeksidagi o'rni va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi dinamikasi<sup>16</sup>**

| Yillar | TTXI oqimi, mlrd dollar | O'zbekistonning "Iqtisodiy erkinlik indeksi" dagi o'rni |
|--------|-------------------------|---|
| 2010   | 1,66                    | 158   |
| 2011   | 1,62                    | 163   |
| 2012   | 0,74                    | 164   |
| 2013   | 0,69                    | 162   |
| 2014   | 0,81                    | 163   |
| 2015   | 1,04                    | 160   |
| 2016   | 1,66                    | 166   |
| 2017   | 1,80                    | 148   |
| 2018   | 0,62                    | 152   |
| 2019   | 2,32                    | 140   |
| 2020   | 2,85                    | 114   |
| 2021   | 2,84                    | 108   |
| 2022   | 3,36                    | 117   |
| 2023   | 4,1 <sup>17</sup>       | 109   |

<sup>15</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

<sup>16</sup> World Bank va <https://www.heritage.org> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

<sup>17</sup> Prognoz

Mamlakatning “Iqtisodiy erkinlik” indeksidagi o‘rni qanchalik yuqori bo‘lsa, investorlarning ushbu mamlakatga o‘z mablag‘larini olib kirishlari uchun ishonchi shuncha yuqori bo‘ladi. Zero, “Iqtisodiy erkinlik” va investitsiyalar o‘rtasida kuchli bog‘liqlik mavjud. O‘zbekistonning “Iqtisodiy erkinlik” indeksidagi o‘rni va to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar oqimini o‘zaro taqqoslash orqali ushbu ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi o‘zaro sabab-oqibat bog‘lanishlarini kuzatishimiz mumkin.

3-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, agar 2010-yilda O‘zbekiston “Iqtisodiy erkinlik” indeksida 158-o‘rinni egallagan va iqtisodiyotga 1,66 mlrd. dollar miqdorida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb etgan bo‘lsa, 2022-yilda O‘zbekiston 117-o‘ringa ko‘tarildi va mamlakat iqtisodiyotiga jalb etilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar hajmi 3,36 mlrd. AQSh dollariga yetdi.

So‘nggi 2010-2023 yillarda O‘zbekistonning “Iqtisodiy erkinlik” indeksida egallagan o‘rni va mamlakat iqtisodiyotiga kirib kelgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar oqimi o‘rtasidagi bog‘lanishga korrelyatsiya koeffitsiyenti orqali baho berish mumkin:

$$r = \frac{\sum(x - \bar{x})(y - \bar{y})}{\sqrt{\sum(x - \bar{x})^2 \sum(y - \bar{y})^2}} = -0,86$$

Bu yerda: to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar oqimi natijaviy belgi (Y);, O‘zbekistonning “Iqtisodiy erkinlik” indeksida O‘zbekiston egallagan o‘rni omil belgi (X).

Tahlillar ko‘rsatishicha, O‘zbekistonning “Iqtisodiy erkinlik indeksi”da tutgan o‘rnining ortishi 86 foiz holatda mamlakat iqtisodiyotiga kirib kelayotgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar oqimi hajmining ko‘payishiga olib keladi.

Umuman olganda so‘nggi besh yilda O‘zbekiston iqtisodiy erkinlik reytingda umumiy jihatdan qaraganda 35 ta o‘ringa yuqoriladi, biroq 2022-yil hisobotiga ko‘ra, 2021-yilga nisbatan 9 pog‘onaga pasaygan. Bu pasayish, eng avvalo, hisobot metodologiyasidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq. Xususan, 2022-yilda ba’zi indikatorlar o‘zgardi, ularning ballarini aniqlashda o‘zgarishlar yuz bergan.

4-jadval ma’lumotlari ko‘rsatishicha, 2020-yilda O‘zbekiston iqtisodiy erkinlik indeksida 114-o‘rinni, 2021-yilda 108-o‘rinni, 2022-yilda 117-o‘rinni va 2023-yilda 109-o‘rinni egallagan. Sohada ijobiy tendensiyalar kuzatilsa-da, indeksning sud faoliyati samaradorligi (123-o‘rin), davlat yaxlitligi (142-o‘rin), monetar erkinlik (175-o‘rin), savdo erkinligi (129-o‘rin), investitsiyalar erkinligi (169-o‘rin) va moliyaviy erkinlik (162-o‘rin) kabi indikatorlar bo‘yicha ko‘rsatkichlar nisbatan past hisoblanadi. Ushbu ko‘rsatkichlarni miqdor va sifat jihatidan yaxshilash investitsiya muhitining sezilarli darajada yaxshilanishiga olib keladi. Tadqiqot ishida ushbu maqsadga erishish uchun “Iqtisodiy erkinlik” indeksi komponentlari quyidagi shkala bo‘yicha tabaqalashtirilgan:

- 0-0,50 – “o‘ta past”,
- 0,50-0,60 – “past”,
- 0,60-0,70 – “o‘rta”,
- 0,70-0,80 – “yaxshi”
- 0,80-1,00 – “yuqori”.

**O‘zbekiston “Iqtisodiy erkinlik indeksi” subindikatorlarining  
tabaqalanishi<sup>18</sup>**

|                                   | 2017 y.               | 2018 y.               | 2019 y.               | 2020 y.               | 2021 y.               | 2022 y.               | 2023 y.               |
|-----------------------------------|-----------------------|-----------------------|-----------------------|-----------------------|-----------------------|-----------------------|-----------------------|
| <b>Iqtisodiy erkinlik indeksi</b> | <b>52,3<br/>(148)</b> | <b>51,5<br/>(152)</b> | <b>53,3<br/>(140)</b> | <b>57,2<br/>(114)</b> | <b>58,3<br/>(108)</b> | <b>55,7<br/>(117)</b> | <b>56,5<br/>(109)</b> |
| <b>0-0,50 – “o‘ta past”</b>       |                       |                       |                       |                       |                       |                       |                       |
| Sud faoliyati samaradorligi       | 41,9                  | 35,3                  | 34,3                  | 34,2                  | 50,8                  | 13,1                  | 13,0                  |
| Davlat yaxlitligi                 | 27,5                  | 24,2                  | 25,2                  | 28,2                  | 30,5                  | 23,8                  | 24,9                  |
| Mulkchilik huquqi                 | 48,0                  | 48,7                  | 49,8                  | 59,1                  | 53,6                  | 31,6                  | 30,9                  |
| Mehnat bozori erkinligi           | 50,4                  | 52,0                  | 58,7                  | 59,9                  | 61,2                  | 48,0                  | 48,1                  |
| <b>0,50-0,60 – “past”</b>         |                       |                       |                       |                       |                       |                       |                       |
| Moliyaviy erkinlik                | 10,0                  | 10,0                  | 10,0                  | 20,0                  | 20,0                  | 40,0                  | 50,0                  |
| Biznes erkinligi                  | 64,8                  | 66,9                  | 72,5                  | 72,6                  | 73,5                  | 59,1                  | 58,9                  |
| <b>0,60-0,70 – “o‘rta”</b>        |                       |                       |                       |                       |                       |                       |                       |
| Investitsiya erkinligi            | -                     | -                     | 10,0                  | 20,0                  | 20,0                  | 50,0                  | 60,0                  |
| Monetar erkinlik                  | 61,1                  | 61,9                  | 58,9                  | 59,9                  | 60,3                  | 61,6                  | 63,4                  |
| <b>0,70-0,80 – “yaxshi”</b>       |                       |                       |                       |                       |                       |                       |                       |
| Davlat xarajatlari                | 66,2                  | 65,5                  | 67,4                  | 74,7                  | 79,9                  | 78,1                  | 74,9                  |
| Savdo erkinligi                   | 66,8                  | 62,5                  | 62,6                  | 67,6                  | 55,4                  | 75,6                  | 76,0                  |
| <b>0,80-1,00 – “yuqori”</b>       |                       |                       |                       |                       |                       |                       |                       |
| Fiskal salomatlik                 | 99,8                  | 99,7                  | 98,7                  | 98,9                  | 98,3                  | 96,6                  | 85,3                  |
| Soliq yuki                        | 90,7                  | 91,0                  | 91,3                  | 91,6                  | 92,4                  | 90,8                  | 92,8                  |

Dissertatsiya ishida indeks subindikatorlari bo‘yicha mamlakatimiz egallagan o‘rnini yaxshilash uchun har bir guruh bo‘yicha alohida dastur ishlab chiqish va uni izchillik bilan amalga oshirish lozimligi asoslangan.

**Birinchi guruh (0-0,50 – “o‘ta past”) uchun dasturda quyidagi jihatlarga e’tibor qaratish lozim:**

- yuridik yoki jismoniy shaxs huquqini boshqa shaxslar, tashkilotlar, davlat organlari tomonidan poymol etilishini (yoki unga tayziq o‘tkazilishini) himoya qiluvchi ishonchli tizimni shakllantirish;

- korrupsiya holatlari va “yashirin iqtisodiyot” ga qarshi kurash samaradorligini oshirish;

- shaxsga o‘z mehnati pirovard natijalarini mustaqil tasarruf etishi va ish joyini erkin tanlashiga sharoit yaratish;

- tadbirkorga ishga qabul qilish va ishdan bo‘shatish erkinligini taqdim etish;

- ishga yollovchi va yollanuvchi o‘rtasidagi munosabatlarni erkin kelishuv asosida amalga oshirish imkoniyatini taqdim etish va h.k.

**Ikkinchi guruh (0,50-0,60 – “past”) uchun dasturda:**

- davlat qarzi va davlat budjeti taqchilligini meyoriy darajada saqlab turish bo‘yicha amaliy choralar ko‘rish;

<sup>18</sup> <https://www.heritage.org/index/visualize> asosida muallif tomonidan tuzilgan.

- tadbirkorlar faoliyati erkinligi, ya'ni ularga o'z ixtiyoriga ko'ra qonunda ko'zda tutilgan faoliyat bilan shug'ullanishi, faoliyat turini o'zi mustaqil tanlay olishini ta'minlashga qaratilgan tadbirlar samaradorligini oshirish;

**Uchinchi guruh (0,60-0,70 – “o'rta”) uchun dasturda:**

- xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha ba'zi cheklovlarni kamaytirish va bartaraf etish;

- inflyatsiyani past darajada ushlab turish;

- narxlar barqarorligini ta'minlash va h.k.

**To'rtinchi guruh (0,70-0,78 – “yaxshi”) uchun dasturda:**

- infratuzilma, ilmiy-tadqiqot ishlari va inson kapitaliga sarflanayotgan xarajatlarning mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlarini oshirish evaziga davlat xarajatlari tarkibini takomillashtirish;

- tashqi savdoni liberallashtirish sohasidagi islohotlarni chuqurlashtirish, Umumjahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni mantiqiy yakuniga yetkazish.

**Beshinchi guruh (0,80-1,00 – “yuqori”) uchun dasturda:**

- tashqi va ichki omillarni hisobga olgan holda erishilgan natijalarni saqlab qolish;

- ko'rsatkichlarning sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratish.

Qulay investitsiya muhitini shakllantirishda hukumatlar xorijiy investitsiyalar jalb etishning turli usullari va dastaklaridan foydalanadi. Ishda qulay investitsiya muhitini shakllantirish bo'yicha Malayziya tajribasi tadqiq etilgan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Malayziya xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanishda mamlakatga rivojlangan mamlakatlar, jumladan, AQSh va Yevropa mamlakatlaridan investitsiyalar jalb qilishda ulardagi samarali menejment uslublari va yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni o'ziga tatbiq qilishga ustuvor vazifa sifatida qaragan. O'zbekiston investitsiya siyosatini takomillashtirishda ushbu jihatga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Qulay investitsiya muhitini shakllantirish bo'yicha BAA tajribasi maxsus iqtisodiy zonalarni shakllantirish va samarali soliq siyosatini amalga oshirish qulay investitsiya muhitini shakllantirishning muhim omili ekanligini ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan O'zbekistonda investitsiya muhitini yaxshilashda mamlakatda faoliyat yuritayotgan maxsus iqtisodiy hududlar imkoniyatlaridan samarali foydalanish va oqilona soliq siyosatini amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

Dissertatsiyaning “**O'zbekistonda investitsiya muhitining zamonaviy holati va iqtisodiy o'sishga ta'sirini rivojlantirishning tendensiyalari**” deb nomlangan ikkinchi bobida O'zbekistonda investitsiya muhitini shakllantirishning meyoriy-huquqiy asoslari, investitsiya muhitini yaxshilash omillari va shart-sharoitlari tahlil qilingan, O'zbekistonda investitsiya muhiti va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni kuchaytirish borasidagi imkoniyatlar va omillar aniqlangan.

Investitsiya faoliyatining meyoriy-huquqiy asoslarini shakllantirish asosida investorlar uchun qulay investitsiya muhitini barpo etish davlatning ustuvor vazifalaridan hisoblanadi. O'zbekistonda investitsiya faoliyatini tartibga solishning meyoriy-huquqiy asoslari xorijiy va milliy investorlar faoliyati uchun qulay huquqiy muhitni shakllantirish, davlat kafolatlarini ta'minlash, ushbu sohadagi mavjud muammolarni hal etishga yo'naltirilgan. Jumladan, mamlakatimiz qonunchiligida

xorijiy investorlar uchun milliy, diniy va hududiy belgilar bo'yicha cheklashlar yoki kamsitishlar mavjud emasligi, davlat investorlar faoliyatiga oid tegishli axborotlardan erkin foydalanish imkoniyatlarini taqdim etishi belgilab berilgan.

Tadqiqot ishida O'zbekistonda investorlar uchun yaratilgan imkoniyatlar, ularga taqdim etiladigan imtiyozlar va preferensiyalar, ularning mezonlari atroflicha yoritilgan. Shu bilan birga xorijiy va milliy investorlar uchun taqdim etilgan raqobat muhitini buzadigan eksklyuziv huquqlar, yakka tartibdagi imtiyozlar va preferensiyalarni bosqichma-bosqich bekor qilish orqali investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish va yashirin iqtisodiyotni legallashtirish bo'yicha takliflar asoslangan.

Jahon amaliyoti tahlili ko'rsatishicha, uzoq muddatli davrda xorijiy investitsiyalar uchun investitsiya muhitining milliy investitsiyalarga nisbatan qulay holatining mavjudligi milliy investitsiyalarning iqtisodiyotga jalb etilish sur'atlarining pasayishiga olib keladi. Ushbu holat iqtisodiyotda milliy investitsiya manbalarining sekin-asta xorijiy investitsiya kanallari orqali kirib kelishiga sababchi bo'ladi.

Jahon amaliyoti ko'rsatishicha, "Iqtisodiyotdagi xorijiy investitsiyalar milliy kapitalni to'ldiruvchi mavqesiga ega bo'ladi. Xorijiy sektorning shakllanishi milliy iqtisodiyotga uyg'unlashtirish vazifasini hal etishni taqozo etadi"<sup>19</sup>.

Iqtisodiy o'sishni jadallashtirish uchun investitsiya resurslarini, jumladan, xorijiy investitsiyalarni nisbatan faolroq jalb etish hisobiga kengaytirishning zarurligi mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning muhim talabi hisoblanadi. Cheklangan mablag'lardan samarali foydalanish – iqtisodiy rivojlanishning muhim sharti hisoblanib, milliy va xorijiy investitsiyalarning samaradorligi investitsiya qabul qilib oluvchi mamlakat uchun farqlanadi<sup>20</sup>.

O'zbekistonda investitsiya muhitini belgilovchi tarkibiy elementlar bo'yicha xorijiy investitsiyalarga yaratilgan imtiyoz va yengilliklar nisbatan sezilarli bo'lib, bu o'z o'rnida ularning milliy investitsiyalarga nisbatan ustun mavqega egaligini ta'minlaydi.

Investitsiyalardan samarali foydalanish va yashirin iqtisodiyotni qisqartirish barqaror iqtisodiy rivojlanishning yetakchi omillari hisoblanadi. Biroq, eksklyuziv huquqlar, individual imtiyozlar va imtiyozlarning mavjudligi aksariyat holda raqobat muhitini buzadi va investitsiya samaradorligiga to'sqinlik qiladi.

Fikrimizcha, xorijiy va milliy investorlar uchun bunday imtiyozlarni bosqichma-bosqich bekor qilish ushbu muammolarni hal qilish imkonini beradi. Ushbu tadbirlar orqali investitsiyani jalb qiluvchi va iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradigan raqobatbardosh va shaffof investitsiya landshaftini yaratish lozim.

Tadqiqot ishida, xorijiy investitsiyalar uchun imtiyoz va yengilliklarni belgilashda quyidagi tamoyillarga rioya qilinishi maqsadga muvofiqligi asoslangan:

1) xorijiy investitsiyalar uchun belgilangan imtiyoz va yengilliklar iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb etishdagi iqtisodiy manfaatlar tizimi muvozanatiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi lozim;

---

<sup>19</sup>Тихонова В.Г. Эффективность прямых иностранных инвестиций: Автореферат дис. ... канд. экон. наук: М., 2005. – С.24.

<sup>20</sup>Тихонова В.Г. Эффективность прямых иностранных инвестиций: Автореферат дис. ... канд. экон. наук: М., 2005. – С.28.

2) xorijiy investitsiyalar uchun belgilangan imtiyoz va yengilliklar ular uchun milliy investitsiyalarga nisbatan iqtisodiy shart-sharoitlarini yumshatish, teng, sog‘lom iqtisodiy raqobatni ta‘minlash imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim;

3) xorijiy investitsiyalar uchun belgilangan imtiyoz va yengilliklar iqtisodiy jihatdan samarali bo‘lishi va istiqbolda barqaror o‘shishni ta‘minlashga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi lozim.

O‘zbekistonda mustaqillik yillarida barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashga qaratilgan quyidagi jarayonlarning amalga oshirilishiga jiddiy e‘tibor qaratildi: tizimli, keng ko‘lamdagi bozor islohotlarini izchil amalga oshirish; xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirish; iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish; ishlab chiqarishni modernizatsiyalash; eksportga ixtisoslashgan yangi tarmoq va korxonalarini barpo etish; kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirishga qaratilgan investitsiya siyosatini izchil amalga oshirish. Tahlillar ko‘rsatishicha, mamlakat iqtisodiyotiga barcha moliyaviy mablag‘lar hisobidan jalb etilgan investitsiyalar xajmi 2022-yilda 2010-yilga nisbatan 8,2 mlrd. AQSh dollaridan 24 mlrd. AQSh dollarigacha yoki 2,8 barobarga ortgan<sup>21</sup>.

### 5-jadval

#### O‘zbekistonda investitsiya faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari<sup>22</sup>

|   | 2010    | 2015     | 2020     | 2021     | 2022     |
|---|---------|----------|----------|----------|----------|
| YAIM, mlrd. so‘m  | 78936,6 | 221350,9 | 580203,2 | 734587,7 | 888341,7 |
| Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar, mlrd. so‘m                                   | 15338,7 | 41670,5  | 202000,1 | 244962,6 | 269857,5 |
| Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning YAIMdagi ulushi, %                        | 19,4    | 18,8     | 34,8     | 33,3     | 30,4     |
| Xorijiy investitsiya va kreditlar, mlrd. so‘m   | 4340,8  | 8309,5   | 86647,0  | 104467,3 | 112219,5 |
| Xorijiy investitsiyalarning jami investitsiyalardagi ulushi, %                            | 28,3    | 19,9     | 42,9     | 42,6     | 41,6     |
| To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, mlrd. so‘m                                    | 3850,0  | 6125,6   | 28740,5  | 30149,2  | 41521,2  |
| To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning jami investitsiyalardagi ulushi, %         | 25,1    | 14,7     | 14,2     | 12,3     | 13,7     |
| To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning jami xorijiy investitsiyalardagi ulushi, % | 88,7    | 73,7     | 44,8     | 28,8     | 37,0     |

Fikrimizcha, har bir hudud uchun belgilangan barqaror iqtisodiy o‘shishning minimal chegarasidan kelib chiqqan holda, uni ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan ichki investitsiyalar hajmini aniqlash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Investitsiyalarning ( $I_d$ ) yalpi ichki mahsulotga ( $GDP$ ) nisbati sifatida aniqlanadigan investitsiyalar meyori ( $I_d/GDP$ ) ichki investitsiyalar hajmini aniqlashda


<sup>21</sup>Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иқтисодий ҳолати. 2022 йил январь-декабрь. - Т.: Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги, 131-б.

<sup>22</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridasi Statistika agentligi ma‘lumotlari asosida tuzilgan.

asosiy mezon bo‘lib xizmat qiladi. Investitsiya meyori darajasiga investitsiya muhiti bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. O‘z navbatida, investitsiya meyori iqtisodiy o‘shish sur‘atlariga kuchli ta‘sir ko‘rsatadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda investitsiya meyori 2010-yilda 19,4 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 30,4 foizga yetdi. Shu bilan birga COVID-19 pandemiyasi va boshqa omillar ta‘sirida ushbu ko‘rsatkich 2020-yildan pasayish trendiga ega.

Agar investitsiya meyorini xorijiy va milliy investitsiyalar chegarasida ko‘radigan bo‘lsak, 1996-2022 yilda milliy investitsiyalarning YAIMga nisbatining o‘rtacha yillik miqdori 18,04 foizni va xorijiy investitsiyalar bo‘yicha ushbu ko‘rsatkich 7,04 foizni tashkil etdi. Investitsiyalarni YAIMga nisbatining o‘rtacha yillik miqdori 33,3 foizni tashkil etgan. Tahlillar ko‘rsatishicha, jami asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalarning YAIMdagi ulushi bilan milliy investitsiya sektorining YAIMdagi ulushi hamohang yo‘nalishda o‘zgarib borgan. Ushbu holat yalpi investitsiyalar tarkibida milliy investitsiyalar salmog‘ining yuqoriligi bilan belgilanadi.



**1-rasm. O‘zbekistonda xorijiy va milliy investitsiyalarning iqtisodiy o‘shishga ta‘siri (akselerator prinsipi bo‘yicha hisoblangan), foizda<sup>23</sup>**

Tadqiqot davridagi o‘rtacha ko‘rsatkichlar o‘rganilganda, milliy sektorning iqtisodiy o‘shish sur‘atiga yangi kiritilgan investitsiyalar asosida qo‘shgan hissasi xorijiy sektorning mos ko‘rsatkichlaridan 2,1 (multiplikator) va 2,1 marta (akselerator) ortiq bo‘lgan holda YAIMdagi milliy investitsiyalar asosidagi korxonalarining ishlab chiqarishi hajmi xorijiy sektorga nisbatan 4,9 barobar va investitsiyalardagi ulushi esa 3,4 martaga yuqoriligi aniqlangan.

<sup>23</sup>Мадрахимов У.А. Ўзбекистонда барқарор ўсиш сифатини ошириш йўллари. Иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. <http://diss.natlib.uz/ru-RU/ResearchWork/OnlineView/43021>.

Jahon tajribasi va mutaxassislar fikrini umumlashtirgan holda tadqiqot ishida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun investitsiyalar meyorining quyi chegara kamida 25 foiz bo'lishi maqsadga muvofiqligi aniqlangan.

Tadqiqot ishida milliy sektorni rivojlantirish va samaradorligini oshirish borasida quyidagi ilmiy takliflar tavsiya etilgan:

- eskirgan ishlab chiqarish vositalarini samarali zamonaviy yuqori texnologiyaga almashtirish;

- ishlab chiqarishga innovatsion jarayonlarni keng joriy etish;

- tashkilot va korxonalarni boshqarish tizimini takomillashtirish;

- zamonaviy ta'lim tizimi asosida kadrlar malakasi va sifatini oshirish;

- davlat sektori ishtirokini qisqartirish asosida sog'lom raqobat muhitini yaxshilash;

- ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy rivojlanishning muhim muammolarini hal qilishda ommaviy kapital sarflash va zamonaviy texnologiyani talab qiladigan, bir-biridan ajralib qolgan hududiy va tarmoqlararo bog'lanishni vujudga keltirish va rivojlantirish.

Investitsiyalar meyor va multiplikatori investitsiya faoliyati samaradorligini ifodalovchi muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Yuqori investitsiya meyor YAIMning katta qismi investitsiyaga yo'naltirilayotganligidan dalolat beradi, past multiplikator esa ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi investitsiyalar o'zgarishiga mutanosib emasligini ko'rsatadi. Shu sababli ushbu mezonlar birgalikda tizimli tahlil qilinsa, har bir mintaqada barqaror iqtisodiy o'sish uchun zarur bo'lgan investitsiyalar hajmini to'g'ri aniqlash va yaxshiroq tushunish mumkin.


Multiplikator mezon ( $\frac{\Delta Y}{\Delta I}$ ) ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi ( $\Delta Y$ ) va investitsiyalarning o'zgarishi ( $\Delta I$ ) o'rtasidagi bog'liqlikni o'lchaydi. Ushbu ko'rsatkich iqtisodiy o'sishni ta'minlashda investitsiyalar samaradorligini bildiradi. Barqaror o'sishni ta'minlashda multiplikator uchun tavsiya etilgan yuqori chegara 2,5 etib belgilanadi. Ushbu mezon investitsiyalar ishlab chiqarish hajmini oshirishga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ta'minlaydi va investitsiyalarga asoslangan iqtisodiy o'sishga haddan tashqari bog'liq bo'lmaydi.

Investitsiyalar rentabelligi (ROI) investitsiyalarning rentabelligi va samaradorligining hal qiluvchi ko'rsatkichidir. Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun 100% minimal ROI chegarasi o'rnatiladi. Bu mezon investitsiyalarning yuqori daromad keltirishini ta'minlaydi, ajratilgan resurslarning hayotiyli va iqtisodiy foydasini ko'rsatadi.

Investitsiya infratuzilmasi darajasi mintaqalar bo'yicha turlicha bo'ladi va ichki investitsiyalar hajmini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda investitsiya muhitini yaxshilashda mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olgan holda chora-tadbirlar ishlab chiqish, jumladan, ishlab chiqarish kuchlari zich joylashgan hududlarda mehnat sig'imkorligi yuqori bo'lgan faoliyat turlarini kengaytirish va mehnat resurslari kam hududlarda kapital sig'imkorligi yuqori ishlab chiqarishni rivojlantirishga e'tibor berish maqsadga muvofiq.

Taqdim etilgan integratsiyalangan mezonlar investitsiyalarni rejalashtirish uchun qaror qabul qilishda asos bo‘lib xizmat qiladi. Qaror qabul qiluvchilar ushbu mezonlardan mintaqadagi investitsiyalarning joriy holatini baholash, kamchiliklar yoki yaxshilanish sohasini aniqlash va barqaror iqtisodiy o‘shishga erishish uchun zarur bo‘lgan ichki investitsiyalar hajmini aniqlash uchun foydalanishlari mumkin. Ushbu kompleks yondashuv samarali qarorlar qabul qilish, resurslarni samarali taqsimlashga yordam beradi va samarasiz investitsiyalar yo‘naltirilishi ehtimolini kamaytiradi.

Tadqiqot ishida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning samaradorligini baholashga alohida o‘rin ajratilgan. Mamlakatda investitsiyalarning samaradorligini baholashda jahon amaliyotida ICOR (Incremental Capital-Output Ratio) indeksidan foydalaniladi (2-rasm). ICOR indeksi qanchalik past bo‘lsa, mamlakatning iqtisodiy o‘shishida investitsiyalardan foydalanish samaradorligi yuqori bo‘ladi. O‘zbekistonda Incremental Capital-Output Ratio indeksi 2000-yilda 6 ni tashkil etgan bo‘lsa, keyingi yillarda notekis rivojlanib, 2022-yilda 5,3 ni tashkil etgan.



**2-rasm. O‘zbekistonda ICOR indeksining o‘zgarishi, koeffitsiyentda<sup>24</sup>**

Industrial rivojlangan mamlakatlarda ushbu indeks 2,5 ni tashkil etadi. O‘zbekistonda ushbu indeks 2007-yilda 2,2 tashkil etib, industrial rivojlangan mamlakatlar darajasidan past bo‘lgan. 2013-yildan boshlab esa ushbu indeks o‘shib borish tendensiyasiga ega bo‘lib, eng yuqori cho‘qqiga pandemiya tufayli 2020-yilga kelib 21,7 ni tashkil etgan.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekistonda investitsiya muhitini yaxshilash asosida barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash yo‘nalishlari”** deb nomlangan uchinchi bobida investitsiya muhiti jozibadorligini oshirish muammolari, ichki investitsiyalarni faollashtirish orqali barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash imkoniyatlari,

<sup>24</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridasi Statistika agntligi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

O‘zbekistonda uzoq muddatli davrda barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashning ustuvor yo‘nalishlari masalalari tadqiq etilgan.

Dissertatsiya ishida investitsiyalar va iqtisodiy o‘shish o‘rtasida mavjud sabab-oqibat bog‘lanishlaridan kelib chiqib, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotga ta‘siri, investitsiya muhiti jozibadorligini oshirish hisobiga investitsiyalar hajmini ko‘paytirish va innovatsion omillardan samarali foydalanish imkoniyatlarini oshirishni ko‘zda tutgan holda O‘zbekistonda iqtisodiy o‘shishning muqobil uch senariyli prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqildi.

**Inersion senariy.** Inersion senariy ekstrapolyatsiya usuliga asoslanib, unda oldingi davrda ustuvor bo‘lgan tendensiya keyingi yillarda ham saqlanib qolishi ko‘zda tutiladi. Shu nuqtayi nazardan bu variantda O‘zbekistonda xom ashyo eksportiga asoslangan model saqlanib qoladi. Tashqi muhit omillariga ta‘sirchanlik yuqori darajada bo‘ladi. Xususan, jahon bozorlarida ayrim mahsulotlarga yalpi talabning pasayishi, qo‘shni mamlakatlardagi ijtimoiy-siyosaiy vaziyat (masalan, Rossiya va Ukraina o‘rtasidagi munosabatlar) va boshqa global tahdidlar O‘zbekiston iqtisodiyotida noaniqlik va xavf-xatarlarni keltirib chiqaradi, ular stoxastik xarakterga ega bo‘lib, ularni prognoz qilish doim ham aniq natijalarni bermaydi. Shu bilan birga, asosiy kapitalga kiritilayotgan investitsiyalarning hajmi va tarkibida ham jiddiy o‘zgarishlar kutilmaydi. Shuningdek, jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari hamda hududiy tarkibida sezilarli o‘zgarishlar yuz bermaydi. Natijada qayta ishlash sanoatiga kiritiladigan investitsiyalar hajmi va ulushi past bo‘lib, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar raqobatbardoshligining oshishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmaydi. Shu nuqtayi nazardan inersion senariy aholi ehtiyojlari va iqtisodiy islohotlar oldiga qo‘ygan talablarga javob bera olmaydi.

**Bazis senariysi.** Ushbu senariy mamlakatimizda qabul qilinayotgan turli iqtisodiy dasturlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi (investitsiya samarasi) natijasida milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida qo‘shimcha ishchi o‘rinlarining vujudga kelishi, investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga jalb etilishi, qayta ishlash sanoati tarmoqlarida yangi mahsulotlar ishlab chiqarilishini ko‘zda tutadi. Mazkur senariyda mamlakatda qulay investitsiya muhitini shakllantirish bo‘yicha jiddiy ishlar amalga oshiriladi, “Iqtisodiy erkinlik”, “Global raqobatbardoshlik” indeksleri ko‘rsatkichlarini yaxshilash bo‘yicha ko‘zda tutilgan chora-tadbirlar muvaffaqiyatli amalga oshiriladi. Garchi bu senariyda milliy iqtisodiyotga jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalar miqyosi va yalpi ichki mahsulot hajmi sezilarli darajada ko‘paysa-da, mavjud tabiiy-iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish, fan sig‘imkorligi yuqori ishlab chiqarish turlarini rivojlantirish, iqtisodiyotda tub tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish nuqtayi nazardan inersion senariy bo‘yicha prognoz ko‘rsatkichlarini aniqlash zaruriyati vujudga keladi.

**Innovatsion senariy.** Ushbu ssenari an‘anaviy (energetika, xom ashyo mahsulotlari ishlab chiqarish, agrar soha) tarmoqlarda, va yangi fan sig‘imkorligi yuqori sektorlarda, bilimlar iqtisodiyotida raqobat ustunliklaridan samarali foydalanish, innovatsion omillarni iqtisodiy o‘shishning yetakchi omiliga aylantirishga qaratilgan bo‘lib, iqtisodiyotdagi jarayonlarni raqamlashtirish orqali biznes-muhitni yaxshilash, iqtisodiyotda davlat ulushini sezilarli kamaytirish orqali raqobat muhitini sog‘lomlashtirish, resurslardan oqilona foydalanish uchun monopol korxonalarni

qisqartirish, klasterlarni rivojlantirish va samarali menejmentni qo'llash xisobiga mehnat unumdorligini oshirishga erishish orqali aktivlarga to'g'ri keladigan daromadni ko'paytirishga erishiladi.

Ushbu senariyni amalga oshirish mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning yangi bosqichiga olib chiqadi, milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish, uni tarkibiy diversifikatsiyalash va samaradorligini oshirish evaziga jahonning etakchi mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlariga yaqinlashish imkoniyatini beradi.

Shundan kelib chiqqan holda, dissertatsiya ishida O'zbekistonda milliy va xorijiy investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotga ta'sirini aniqlash maqsadida quyidagi ekonometrik model tuzildi:

$$Y = 4,9479 + 0,111436 \times X_1 + 0,007052 \times X_2$$

$$R^2 = 0,334685 \quad F = 0,20833$$

Modeldan ko'rinib turibdiki, milliy investitsiyalarning 1 foizga o'sishi yalpi ichki mahsulotning 0,11 foizga, xorijiy investitsiyalarning 1 foizga o'sishi esa 0,07 foizga o'sishiga olib keladi. Ushbu modeldan foydalanib yalpi ichki mahsulotning 2030-yilgacha muddatda qo'shimcha o'sish sur'atlari aniqlandi.

Tahlil jarayonida O'zbekistonda 2000-2022 yillar mobaynida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning qo'shimcha o'sish sur'atlari markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalar kesimida ko'rib chiqildi. Ushbu ma'lumotlar asosida investitsiyalar hajmining o'sishiga markazlashgan investitsiyalar va markazlashmagan investitsiyalar o'sish sur'atlariga nisbatan funksiya deb olindi. Mazkur funksiyaning regression statistikasi ma'lumotlarini quyidagi jadval orqali ifodalash mumkin (6-jadval).

## 6-jadval

### Regression statistika va dispersion tahlil ma'lumotlari

| <i>Regression statistika</i> |                        |                         |                     |                 | <i>a)</i>         |
|------------------------------|------------------------|-------------------------|---------------------|-----------------|-------------------|
| <b>Ko'p miqdorli R</b>       |                        |                         |                     |                 | 0,961357488       |
| <b>R-kvadrat</b>             |                        |                         |                     |                 | 0,924208219       |
| <b>Norma R-kvadrat</b>       |                        |                         |                     |                 | 0,916230137       |
| <b>Sandart xatolik</b>       |                        |                         |                     |                 | 3,350690826       |
| <b>Kuzatuvlar</b>            |                        |                         |                     |                 | 22                |
| <b>Dispersion tahlil</b>     |                        |                         |                     | <b>b)</b>       |                   |
|                              | <i>df</i>              | <i>SS</i>               | <i>MS</i>           | <i>F</i>        |                   |
| Regressiya                   | 2                      | 2601,177731             | 1300,589            | 115,8434        |                   |
| Qoldiq                       | 19                     | 213,3154512             | 11,22713            |                 |                   |
| Jami                         | 21                     | 2814,493182             |                     |                 |                   |
|                              |                        |                         |                     | <b>c)</b>       |                   |
|                              | <i>Koeffitsientlar</i> | <i>Standart xatolik</i> | <i>t-statistika</i> | <i>Past 95%</i> | <i>Yuqori 95%</i> |
| <i>Ozod had (a)</i>          | 0,605796536            | 1,134970283             | 0,533755            | -1,76972        | 2,981317          |
| <i>O'zgaruvchi (X1)</i>      | 0,630338007            | 0,077330866             | 8,151183            | 0,468483        | 0,792193          |
| <i>O'zgaruvchi (X2)</i>      | 0,25056431             | 0,019751459             | 12,68586            | 0,209224        | 0,291905          |

6-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, R-kvadrat bu korrelyatsiya koeffitsiyenti bo'lib, u omillar o'rtasidagi bog'lanish kuchli ekanligini ko'rsatadi, ya'ni markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalarning asosiy kapitalga kiritilayotgan investitsiyalari o'rtasidagi bog'lanishning kuchli ekanligi boshqa shart-sharoitlar o'zgarmas bo'lgan holatda 0,924208 ga teng ekan. Ushbu ko'rsatkich bu omillar o'rtasida kuchli bog'lanish mavjud ekanligini ko'rsatadi.

Microsoft Excel dasturidagi hisob-kitoblar natijasida quyidagi ekonometrik model tuzidi.

$$Y = 0,605796 + 0,630338 \times X_1 + 0,250564 \times X_2$$

$$R^2 = 0,924208 \quad F = 115,8434$$

Modeldan ko'rinib turibdiki, markazlashgan investitsiyalarning 1 foizga o'sishi YAIMning 0,2505564%ga o'sishiga, markazlashmagan investitsiyalarning 1 foizga o'sishi esa YAIMning 0,605796 foizga o'sishiga olib kelar ekan.

Ushbu modeldan foydalangan holda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmining 2030-yilgacha bo'lgan prognoz ko'rsatkichlari aniqlandi (7-jadval).

### 7-jadval

#### O'zbekistonda YAIM va asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 2030-yilgacha bo'lgan davr uchun muqobil senariylari va maqsadli prognoz ko'rsatkichlari

| Yillar | YAIMning qo'shimcha o'sish sur'atlari, foiz |       |             | Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning qo'shimcha o'sish sur'atlari, foiz |       |             |
|--------|---|-------|-------------|--|-------|-------------|
|        | Inertsion                                   | Bazis | Innovatsion | Inertsion  | Bazis | Innovatsion |
| 2023   | 5,9   | 6,2   | 7,7         | 20,5   | 20,6  | 20,9        |
| 2024   | 6,2   | 6,9   | 7,8         | 21,4   | 21,5  | 21,7        |
| 2025   | 6,5   | 7,2   | 8,0         | 22,3   | 22,5  | 22,6        |
| 2026   | 6,7   | 7,5   | 8,1         | 23,2   | 23,3  | 23,5        |
| 2027   | 7,0   | 7,8   | 8,2         | 24,1   | 24,2  | 24,4        |
| 2028   | 7,3   | 8,0   | 8,3         | 24,9   | 25,0  | 25,3        |
| 2029   | 7,5   | 8,1   | 8,4         | 25,8   | 25,9  | 26,2        |
| 2030   | 7,8   | 8,2   | 8,6         | 26,7   | 26,8  | 27,0        |

Innovatsion senariy bo'yicha 2030-yilgacha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar va YAIM hajmi yaqin o'n yillikda barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'ladi: 2030-yilga borib asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning qo'shimcha o'sish sur'ati 27 foizni tashkil etadi, yalpi ichki mahsulotning o'rtacha yillik o'sish sur'ati 8,1 foizga teng bo'lib, YAIM hajmiing 2 barobarga oshishiga olib keladi.

Bugungi kunda xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb qilish bilan bog'liq mavjud barcha resurs va zahiralarni o'rganish va qaytadan ko'rib chiqish, chet el kapitalini milliy korxonalariga jalb qilish mexanizmini takomillashtirish borasida ish olib borish lozim bo'ladi:

- aholi qo'lidagi bo'sh pul mablag'larini investision jarayonlarga jalb qilish yuzasidan chora-tadbirlarni amalga oshirish, jumladan, qimmatli qog'ozlar bozorini

yanada rivojlantirish, uy-joy sertifikatlari va uy-joy obligatsiyalarini chiqarish masalalarini hal etish;

- investision loyihalarni moliyalashtirishning nokredit usullaridan bo‘lgan lizing, franchayzing, faktoring kabilardan foydalanish jarayonini kengaytirish;

- investision loyihalarni sifatini oshirish, loyihalarni kapital qo‘yilmalar samaradorligi talablariga mos kelishi maqsadida tijorat asosida doimiy ravishda faoliyat yuritadigan investision loyihalar ko‘rgazmasini tashkil qilish;

- hududlardagi mahalliy hokimliklar va tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda kichik biznes va tadbirkorlik sub‘ektlari bilan uchrashuvlar o‘tkazib, xorijiy investisiya ishtirokidagi korxonalarini ro‘yxatdan o‘tkazish tartiblari, ularga berilgan imtiyozlar va yengilliklar, qonunchilikdagi yangiliklar to‘g‘risida doimiy ravishda ma‘lumotlar berib borish;

- har bir mintaqaning tabiiy boyliklari, yer-suv zaxiralari, xomashyo bazasi, iqtisodiy ixtisoslashuvi, sanoat bazasi maxsus metodikalar asosida baholanishi va mintaqalarning veb sayti ma‘lumotlarida joylashtirish maqsadga muvofiqdir.

## XULOSA

1. Investitsiya muhiti – investitsiyalash sharoitlarining integral tavsifi bo‘lib, uzoq davr mobaynida mamlakatning investitsiya jozibadorligi va investitsiya xavf-xatarlarini baholash asosida shakllanadi va potensial investorning investitsiya kiritish qaroriga ta‘sir ko‘rsatadi. Investitsiya muhiti holati yaratilgan huquqiy baza va uning asoslari, qonun hujjatlarining sifatli tuzilishi va ularga rioya qilinishini namoyon etadi.

2. Investitsiya muhiti jozibadorligi tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin: investitsiya salohiyati – mamlakatning investitsiyalarni kirib kelishi uchun ochiqligi va iqtisodiy resurslar zahiralarining mavjudligi, ularning hajmi bilan belgilanadi. Investitsiya xavf-xatari – investorlarga yaratib berilgan shart-sharoitlardan kelib chiqib, ularning daromad olish yoki uni yo‘qotish ehtimolligini ifodalaydi.

3. “Iqtisodiy erkinlik“ reytingini yaxshilash maqsadida mamlakatimizning reytingdagi o‘rning barqarorligini ta‘minlash va yaxshilash imkoniyati ko‘rsatkichlarning baholanishi investitsiya muhitini yaxshilash borasida aniq chora-tadbirlarni amalga oshirishga zamin yaratadi.

4. Milliy iqtisodiyotda qulay investitsiya muhitini shakllantirish bo‘yicha Malayziya tajribasi tadqiq etilgan. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ushbu mamlakat xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanishda shunday investitsiya siyosatni olib borganki, bunda Malayziyaga rivojlangan mamlakatlardan, jumladan, AQSh va Yevropa mamlakatlaridan investitsiyalar jalb qilishda ulardagi samarali menejment uslublari va yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni iqtisodiyotda joriy qilishga ustuvor vazifa sifatida qaralgan. O‘zbekiston investitsiya siyosatini takomillashtirishda ushbu mamlakat tajribasiga alohida e‘tibor qaratishi maqsadga muvofiq.

5. Xorij tajribasidan kelib chiqqan holda milliy iqtisodiyotga investitsiyalar hajmini, ichki investitsiyalar negizida ko‘paytirish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim:

- jamg‘armalarni investitsiyaga aylantirish bilan bog‘liq milliy iqtisodiyotda amal qiluvchi mavjud iqtisodiy mexanizmni takomillashtirish;

- tijorat banklari tomonidan aholi qo'lda ihtiyoridagi pul resurslarini depozit ko'rinishida jalb qilish va ularni tadbirkorlik subyektlariga kredit mablag'lari sifatida berish;

- aholi ihtiyorida jamlangan pul mablag'larini fond birjasi orqali investitsiya jarayoniga jalb qilish va hokazo.

6. Tadqiqot ishida, ayrim hudud uchun belgilangan iqtisodiy o'sishning minimal chegarasidan kelib chiqqan holda uni ta'minlash uchun zarur bo'lgan milliy investitsiyalar hajmini aniqlash tartibi ishlab chiqilgan.

7. Statistik ma'lumotlardan foydalanib, iqtisodiyotda YAIMning o'sish sur'ati prognoz davrida muqobil o'zgarishi grafigi shakllantirilgan va respublikadagi YAIM xajmining 2030-yilgacha muddatda muqobil senariylar asosida o'sishi prognoz qilingan.

8. Innovatsion senariy bo'yicha 2030-yilgacha davrda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar va YAIM hajmi yaqin o'n yillikda barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'ladi: 2030-yilga borib asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning qo'shimcha o'sish sur'ati 27 foizni tashkil etadi, yalpi ichki mahsulotning yillik o'rtacha o'sish sur'ati 8,1 foizga teng bo'lib, mamlakat YAIM xajmining 2 barobar ortishiga olib keladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03.04.2021.I.133.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ МЕЖДУНАРОДНОМ  
УНИВЕРСИТЕТЕ КИМЁ.**

---

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ВОСТОКОВЕДЕНИЯ**

**САЛАЕВ ДИЛШОДБЕК СОФАРБАЕВИЧ**

**Обеспечение устойчивого экономического роста на основе улучшения  
инвестиционной среды в национальной экономике**

**08.00.01 – Экономическая теория**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ НА СОИСКАНИЕ УЧЕНОЙ  
СТЕПЕНИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ЭКОНОМИЧЕСКИМ  
НАУКАМ**

**Ташкент – 2023**

Тема диссертации доктора философии (Doctor of Philosophy) зарегистрирована под номером 30.09.2014 В2014.3-4.192. в Высшей аттестационной комиссии

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном университете востоковедения.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице научного совета ([www.kiut.uz](http://www.kiut.uz)) и в информационно-образовательном портале «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный руководитель:** **Расулов Тулкин Саттарович**  
доктор экономических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** **Абдуллаев Суюн Артикович**  
доктор экономических наук, профессор

**Каримов Норбой Ганиевич**  
доктор экономических наук, профессор

**Ведущая организация:** **Наманганский инженерно-строительный институт**

Защита диссертации состоится «23» декабря 2023 года в 11:30 часов на заседании Научного совета PhD.03/04.2021.I.133.01 по защите диссертаций на соискание учёной степени доктора философии (PhD) по экономическим наукам при Ташкентском международном университете Кимё (Адрес: 100121, г. Ташкент, ул. Усмана Носира, д. 156. Тел.: (99878) 129-40-40; факс: (99878) 129-40-40; e-mail: [info@kiut.uz](mailto:info@kiut.uz))

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном Центре Ташкентского международного университета Кимё (зарегистрировано под номером 7). Адрес: 100121, Г. Ташкент, ул. Усмана Носира, д. 156. Тел.: (99878) 129-40-40; факс: (99878) 129-40-40; e-mail: [info@kiut.uz](mailto:info@kiut.uz)

Автореферат диссертации разослан «7» декабря 2023 года.

(протокол реестра 4 от «7» декабря 2023 года).



**Вахабов Абдурахим Васикович**  
Председатель Научного Совета по  
присуждению учёных степеней,  
доктор экономических наук,  
профессор

**Аллакуликов Акмал Балтаевич**  
Секретарь Научного Совета по  
присуждению учёных степеней,  
доктор философии по экономике  
(PhD)

**Кудайбергенов Жанполат Шамуратович**  
Заместитель председателя научного  
семинара при Научном Совете по  
присуждению учёных степеней,  
кандидат экономических наук, доцент

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В настоящее время с одной стороны, возрастание спроса на инвестиции в условиях разрыва глобальных цепочек добавленной стоимости под влиянием различных социально-экономических изменений, происходящих в мире, техногенных и природных факторов, необходимость обеспечения устойчивых темпов экономического роста в связи с повышением экологических требований, с другой стороны, обуславливает повышение эффективности мер, направленных на улучшение инвестиционной среды. По данным Всемирного банка, «в 2021 году глобальный поток прямых иностранных инвестиций составил 1,58 трлн. долларов. Это на 64 процента выше показателя 2020 года, который был существенно снижен из-за пандемии коронавируса»<sup>25</sup>. При этом важное место занимают приоритетные тенденции обеспечения устойчивого экономического роста в условиях обострения конкуренции между странами за инвестиционные ресурсы на основе изменения стратегий развития инвестиционной среды.

В мире особое внимание уделяется научным исследованиям, охватывающим такие стратегические цели, как направление инвестиций в обрабатывающие отрасли промышленности, создание благоприятной инвестиционной среды на основе внедрения цифровых технологий и инновационных подходов, увеличение объемов привлечения иностранных инвестиций с учетом национальных интересов. В исследованиях международных научных центров приоритетными направлениями научных исследований являются создание условий для улучшения инвестиционной среды на основе реализации структурных и институциональных изменений в экономике, научное обоснование эффективных методов и средств формирования благоприятной инвестиционной среды путем внедрения инновационных подходов, эффективное использование возможностей государственно-частного партнерства в реализации важных инвестиционных проектов.

В Узбекистане обеспечение свободы осуществления инвестиционной деятельности, гарантированная защита прав и законных интересов отечественных и иностранных инвесторов, увеличение объемов инвестиций на основе формирования благоприятной инвестиционной среды рассматриваются в качестве приоритетных направлений социально-экономического развития. В частности, в стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы поставлена задача «дальнейшего улучшения и повышения привлекательности инвестиционного климата в стране, принятия мер по привлечению в последующие пять лет инвестиций в объеме 120 миллиардов долларов США, в том числе 70 миллиардов долларов иностранных инвестиций»<sup>26</sup>. В тоже время неравномерное размещение привлекаемых иностранных инвестиций в разрезе регионов оказывает негативное влияние на устойчивые темпы экономического роста страны в долгосрочной перспективе. В связи с этим настоятельно

---

<sup>25</sup> World Bank, “Investment Climate” [www.worldbank.org/investmaentclimate](http://www.worldbank.org/investmaentclimate)>

<sup>26</sup> Указ Президента Республики Узбекистан «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28.01.2022 г. № УП-60 / <https://lex.uz/ru/docs/5841077>

требуется исследования по направлениям улучшения инвестиционной среды и обеспечения устойчивых темпов роста на основе внедрения эффективного механизма привлечения иностранных инвестиций в экономику регионов.

Данное исследование в определённой степени служит реализации задач, предусмотренных Указами Президента Республики Узбекистан № УП-5495 от 1 августа 2018 года “О мерах по коренному улучшению инвестиционной среды в Республике Узбекистан”, №УП-6003 от 2 июня 2020 года “Об улучшении позиций Республики Узбекистан в международных рейтингах и индексах, а также внедрении нового механизма системной работы с ними в государственных органах и организациях”, № УП-60 от 28 января 2022 года “О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы”, № УП-269 от 21 декабря 2022 года “О мерах по реализации административных реформ нового Узбекистана”, № УП-158 от 11 сентября 2023 года “О стратегии «Узбекистан – 2030»”, Постановлениями Президента Республики Узбекистан № ПП-4300 от 29 апреля 2019 года “О мерах по дальнейшему совершенствованию механизмов привлечения прямых иностранных инвестиций в экономику республики”, № ПП-4937 от 28 декабря 2020 года “О мерах по реализации инвестиционной программы Республики Узбекистан на 2021-2023 годы” и другими нормативно-правовыми актами, принятыми в данной сфере.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Данное диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового государства, формирование инновационной экономики».

Инвестиция муҳити ва барқарор иқтисодий ўсиш ўртасидаги ўзаро боғланишлар, инвестиция муҳитини яхшилашнинг барқарор иқтисодий ўсишга таъсири масалаларини таҳлил этиш иқтисодий адабиётда муҳим ўрин тутди.

**Степень изученности проблемы.** Анализ вопросов взаимосвязи инвестиционной среды и устойчивого экономического роста, влияния улучшения инвестиционной среды на устойчивый экономический рост занимает важное место в экономической литературе. Теоретические аспекты влияния инвестиций на темпы и качество экономического роста исследовали в своих научных трудах такие зарубежные экономисты-ученые, как Ю.Шумпетер, Дж.Кейнс, Р.Харрод, К.Макконнел, С.Брю, П.Самуэльсон, Г.Лоуренс, Х.Де Грегорио, Н.Байрактар, Р.Нельсон, С.Уинтер, П.Друкер<sup>27</sup> и другие.

---

